

OSIYO YO'LBARSI SIGAPUR**Omoboyeva Muhisa Azamat qizi**

Amudaryo tumani Mang'it shahri

Annotatsiya: Janubiy sharqiy Osiyodagi davlat, shahar, Singapur orolida unga tutash mayda orolarda hamda Malakka yarim orolining janubiy chekkasida joylashgan. Singapurda 50 ta orollar bor. Singapur bo'gozi sohollaridagi dunyoda eng yirik dengiz portlaridan tashkil topgan. Aholisi 4,1 mln. kishi (2001). Singapur davlatning tashkil topishi va qanday rivojlanganligi haqida bir qancha malumotlarni o'rganib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Singapur davlati , shahri , "Iqtisodiy mo'jiza", "Osiyo yo'lbarisi ",

Li Kuan Yuning siyosati.

Singapur- Singapur davlatining poytaxti bo'lib u 1965-yil o'z mustaqilligini e'lon qilgan mustaqil davlat hisoblanadi. Janubiy sharqiy osiyoning yirik iqtisodiy markazi bo'lib bu mamlakatda 50 dan ziyot kichik orollarda joylashgan . Hududi – 622 km. kv . Davlat tili –ingliz, xitoy(mandarin lahjasi) malay , tamil. Dini – buddaviylik (30%) , xristianlik (20%), islom (18%), induizm, taoizm, konfutsiyalik(15%).

Qisqa mudat ichida juda katta rivojlanib yirik iqtisodiy zona barpo etib, rivojlanayotgan mamlakatlarning qatoriga kirgan davlatlarning biridir .

Bu mamlakatning tarixiga yuzlanadigan bo'lsak , 1819-yil bu yerda hech qanday davlat, shahar bo'lmagan , o'rnida katta changalzor va o'rmonlardan iborat bo'lgan hududni ingliz Tomas Reflz Sulton Johardan sotib oladi va

unga Singapur nomini berib bu shaharga asos soladi . Keyinchalik Singapurni Britaniya o'z mustamlakachilik siyosatining tayanchining asosiy nuqtalardan biri bo'lib qoladi. Shundan so'ng 2-jahon urshi yillarda mamlakat yo'poniya tomonidan bosib oladi lekin urishdan so'ng Singapur Biritaniya mustamlaksi bo'lib qoladi.

Keyingi yillar maboynida Singapurni ko'z ilg'amas darajaga olib kelgan uni rivojlantirib yuksak tog' cho'qqasiga olib chiqqan insonning olib borgan siyosati va uning tamoyillari bilan tanishamiz. Bu inson Li Kuan Yu.

U 1948 -yili 25 yoshida singapurdan Biritaniyaga o'qishga ketadi U yerda ingliz tilini o'rganib universitet va eng yaxshi yurist maktabida o'qiydi so'ngra

Yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lgach Sigapurga qaytadi. Singapur o'z mustaqiligini e'lon qilgach Li kuan Yu 35 yoshga to'lganda mamlakatni qay tarizda rivojlantirish va qanday qilib ishlashga o'rgatishni o'ylaydi.

Li Kuan Yu bir xillikdan qochadi , o'ziga xos uslub va siyosiy boshqaruv yo'lini tutadi.

Birinchi navbatda u o'z aholisiga 750 mingta turar joy qurib beradi albatta hech qaysi daraxtlarni kesmasdan va ularga ziyon yetkazmasda shunga ko'ra Singapurning 40% daraxtlardan iborat.

Ikkinchidan davlatni rivojlantirish cho'qiga olib chiqish uchun yoshlarni tarbiyalash bilim, malaka beruvchi o'qtuvchilarga e'tiborni kuchaytirdi va oylik moashlarni ko'tardi.

Uchunchidan tibbiyot sohasini ham jamiyat va xalq o'rasida obro' e'tiborini yuksaltirdi chunki aholi yshlar sog'lom bo'lsa bu mamlakatning ham ertanggi kuni muvaffaqiyatli bo'lishini bilardi.

To'rtinchidan harbiy sohasining maosh va mvqesii oshirdi nega deganda 2-jahon urshuda Yoponlar Singapurni bosib olishdi va xalqini xo'rladi.

Endi esa bularni ishga tushurish uchun davlat boshqaruvi va qonun ustuvorligi zarur edi Qonun hukmron bo'lish uchun esa asosiy to'siq bu korrupsiya .

dastlab ish boshlaganda esa shunday yozadi "Menda ikkita yo'l bor edi :birinchisi yurtni talash , qarindosh -urug'larimni atrofimga yig'ish ularga mansab berish ularni "Forbes"(dunyoing eng boy odamlari ro'yxati e'lon qilinadigan jurna) ro'yxatiga kiritish buning evaziga xalqni hech narsasiz qoldirish. Ikkinchisi xalqimni boy qilib qarindosh-urug'larimdan kechish" shubxasiz Li Kuan Yu ikkinchi yo'ni tanladi. Keyingi rejalar esa aholini ish bilan taminlash ularga maosh berish u yana bir ajoyib siyosat yuritdi yani soliqlarni kamaytirdi va shundagina chet eldan investitsiya kiryilib Singapurda fobrika, zavod, korxonalar ochilish va aholini ish bilan taminlash mumkin edi. Singapur xorij mablag'ini keng jalb etishni boshlagan birinchi janubiy-sharqiy Osiyodagi davlat edi.aynan ushbu mablag' yordamida sanoatni samarali moderinzatsiya qilishga erishildi. Singapurda o'z faoliyatini boshlagan dunyoning yirik kompaniyalarni mablag' talab etuvchi va ilim fanga ixtisoslashtirilgan korxonalar barpo etdilar va zamonaviy texnologiyalar olib kelishdi chunki Singapurda na qazilma boyliklari na dehqonchilik uchun unumli

yer bor edi hatto chuchuk suv ham yoq ammo hozirgi kunga kelib suvni Malayziyadan import qilib olishadi.

Li Kuan Yu tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsalrdan biridir. U kichik vaimkoniyatlari cheklangan mamlakatni dunyoning eng ilg'or qatoriga olib chiqqan.. Singapur o'z taraqiyotida shunday kuchli sakarashni amlaga oshirdiki, o'tgan asirning 60-yillaridan 90-yillariga duny ommaviy axbrot vositalarida norasmiy nom -"Osiyo Yo'lbarisi" ga ega bo'lishdi chunki bu davlat ko'z ilg'ab bo'lmaydigan darajada juda tez o'zini tiklab cho'qqiga chiqishga muvofiq bo'lgan mamlakatdir.

Hozirgi kunda Singapurda sanoat ayniqsa elektronika va kemasozlik sohalari yaxshi rivojlangan. Singapur-jahonning eng yirik savdo portlidan biridir . Qishloq xo'jligida asosan kauchuk yetishtiriladi. Kauchuk Singapurning asosiy eksport mahsuloti hisoblanadi. Asosiy savdo hamkorlari :AQSH, Malayziya, Yoponiya, Gongkong . Temiryo'larning umumiy uzunligi - 38km .Avtomobil yo'laring uzunligi -2597 km. Singapurda suv muammosi katta bo'lganligi uchun hatto simg'irni qayta ishlab iste'mol qilishadi.

Bu mamlakatning havosi juda toza va shunday bo'lib qolishiga juda katta harakat qilishadi bu yerda avftamobil sotib olish juda qiyin va qimmat hujatlaring o'zi katta miqdorda pul sarflashadi va bitta avftomobilning puliga boshqa davlatda ikki yoki uchta mashina sotib olish mumkin , avftamobilga egalik huquqi 60 ming singapur dollari tashkil etadi va 10 yil mudatga beriladi yana daraxtlarga katta e'tibor berishadi hatto ular uchun ayrim sshifokorlar tayinlangan mana nima uchun Singapurliklar – johonning eng sog'lom kishilari hisoblashadi.

Aholining	o'rtacha	oylikgi-	4370	dollar
Kishi	boshiga	daromad	-79576	dollar
Singapur davlatining yillik daromadi har bir fuqoroga 55000 AQsh dollari				
Buni	Iqtisodchilar	" iqtisodiy	Mo'jiza	" deb atashadi
Qonun	ustuvorligi		bo'yicha	7-o'rinda
Korrupsiya	bo'yicha		dunyo	5-o'rinda
Bilim bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.				